Ravshanbekov JaxongirAlisher o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti,
"Transport vositalari muhandisligi"
kafedrası, tayanch doktoranti
ORCID: [0009-0009-8234-3974](https://orcid.org/0009-0009-8234-3974)



Muxitdinov Akmal Anvarovich

Toshkent davlat transport universiteti,
"Transport vositalari muhandisligi"
kafedrası professori t.f.d (DSc),
ORCID: [0000-0001-5360-8624](https://orcid.org/0000-0001-5360-8624)



Annotatsiya. Ushbu maqolada shahar sharoitida avtomobillarning harakat rejimlarini optimal tanlash orqali yonilg'i sarfini kamaytirish masalasi o'rganilgan. Tadqiqotda bir o'rkachli trapetsiyasimon tezlik profili asosida Nexia avtomobili uchun 30, 40, 50, 60 va 70 km/soat maksimal tezliklarda, turli tezlanish ($0,5\text{--}3,0\text{ m/s}^2$) va sekinlanish ($0,3\text{--}4,0\text{ m/s}^2$) qiymatlarida 240 dan ortiq harakat profillari hisoblab chiqilgan. MATLAB/Simulink dasturida teskari yondashuv (backward model) asosida yonilg'i sarfini aniqlovchi model ishlab chiqilgan. Natijalar asosida har bir maksimal tezlik uchun eng tejamkor (eko) rejim aniqlangan. Eng past yonilg'i sarfi 50 km/soat maksimal tezlikda, $a = 2,5\text{ m/s}^2$ tezlanish va $j = 0,3\text{ m/s}^2$ sekinlanish qiymatlarida kuzatilib, $6,60\text{ l/100 km}$ ni tashkil etgan. Muhim ilmiy natija sifatida aniqlanishicha, ma'lum chegaragacha tezroq tezlanish yonilg'i sarfini kamaytirishga yordam berishi mumkin, silliq va nazoratli sekinlanish esa samaradorlikni oshiradi. Olingan natijalar haydovchilarga optimal tezlanish va silliq sekinlashuv orqali yonilg'i sarfini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tezlik profili, yonilg'i sarfi, eko-haydash, trapetsiyasimon profil, MATLAB/Simulink, harakat rejimlari.

Abstract. This article presents a methodology for optimizing driving modes to reduce fuel consumption in urban conditions. Based on a single-hump trapezoidal speed profile, more than 240 driving profiles were calculated for the Nexia vehicle at maximum speeds of 30, 40, 50, 60, and 70 km/h, with various acceleration ($0.5\text{--}3.0\text{ m/s}^2$) and deceleration ($0.3\text{--}4.0\text{ m/s}^2$) values. A fuel consumption calculation model based on the backward approach was developed in the MATLAB/Simulink environment. Based on the results, the most efficient (eco) mode was identified for each maximum speed. The lowest fuel consumption was observed at a maximum speed of 50 km/h, with acceleration $a = 2.5\text{ m/s}^2$ and deceleration $j = 0.3\text{ m/s}^2$, amounting to 6.60 l/100 km . An important finding is that acceleration within an optimal range can contribute to fuel savings, while smooth and controlled deceleration enhances overall efficiency. The results indicate that drivers can significantly reduce fuel consumption by combining smooth deceleration with optimized acceleration strategies.

Keywords: speed profile, fuel consumption, eco-driving, trapezoidal profile, MATLAB/Simulink, driving modes.

Аннотация. В данной статье разработана методика теоретического обоснования оптимальных режимов движения, направленных на снижение расхода топлива легковых автомобилей. На основе одноступенчатого трапецевидного профиля скорости для автомобиля Nexia рассчитано более 240 профилей движения при максимальных скоростях 30, 40, 50, 60 и 70 км/ч, различных значениях ускорения ($0,5\text{--}3,0\text{ м/с}^2$) и замедления ($0,3\text{--}4,0\text{ м/с}^2$). В среде MATLAB/Simulink разработана модель расчёта расхода топлива на основе обратного подхода (backward model). По результатам для каждой максимальной скорости определён наиболее экономичный (эко) режим. Минимальный расход топлива зафиксирован при максимальной скорости 50 км/ч, ускорении $a = 2,5\text{ м/с}^2$ и замедлении $j = 0,3\text{ м/с}^2$ — $6,60\text{ л/100 км}$. Важным научным результатом является установление того, что ускорение в оптимальном диапазоне может способствовать снижению расхода топлива, тогда как плавное и контролируемое замедление повышает эффективность движения. Полученные результаты показывают, что водители могут существенно снизить расход топлива, сочетая плавное торможение с рациональным ускорением.

Ключевые слова: профиль скорости, расход топлива, эко-вождение, трапецевидный профиль, MATLAB/Simulink, режимы движения.

KIRISH

Bugungi kunda avtomobillarning yonilg'i sarfini kamaytirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yonilg'i narxlarining o'sishi, ekologik muammolarga e'tiborning ortishi hamda avtotransport vositalari sonining ko'payishi energiya samaradorligini oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan yengil avtomobillar soni 4,7 milliondan oshgan bo'lib, bir yil davomida 415 mingdan ortiq o'sish kuzatilgan [1].

Avtomobillar sonining ortishi va transport oqimining zichlashuvi yo'l harakati sharoitlarini murakkablashtirmoqda. Natijada avtomobillarning tez-tez tezlanishi, sekinlanishi va to'xtab-turish holatlari ko'payib, bu jarayon yonilg'i sarfi va energiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday sharoitda eko-haydash (eco-driving) konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Eko-haydash — bu haydovchining harakat uslubini optimallashtirish orqali yonilg'i sarfini kamaytirish va chiqindi gazlar miqdorini qisqartirishga qaratilgan yondashuvdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, notekis tezlik rejimlarida yonilg'i sarfi 12–18% gacha ortishi mumkin. Shu bilan birga, amaliy kuzatuvlar ko'plab haydovchilar harakat sharoitlariga mos kelmaydigan tezlik rejimlarini tanlashini (tirbandlikda keskin tezlanish, notekis harakat va optimal tezlikni saqlamaslik) ko'rsatmoqda.

Mazkur holat yonilg'i sarfining ortishiga va qo'shimcha iqtisodiy hamda ekologik yuklamaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois, harakat sharoitlariga mos optimal va tejamkor harakat rejimlarini aniqlash va asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — yengil avtomobillar uchun yonilg'i sarfini kamaytirishga qaratilgan eko-harakat rejimlarini nazariy jihatdan asoslash metodikasini ishlab chiqish hamda Nexia avtomobili misolida uni qo'llash orqali amaliy natijalarni taqdim etishdan iborat.

Mazkur tadqiqot aynan shu yondashuvga asoslanib, shahar sharoitiga yaqin tezlik profillari asosida yengil avtomobillar uchun yonilg'i sarfini kamaytirishga qaratilgan eko-harakat rejimlarini nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Tadqiqot vazifalari:

1. Avtomobil harakatini modellashtirish uchun trapetsiyasimon tezlik profillarini ishlab chiqish va ularni matematik ifodalash;
2. Turli maksimal tezliklar (30, 40, 50, 60, 70 km/soat), tezlanish ($0,5-3,0 \text{ m/s}^2$) va sekinlanish ($0,3-4,0 \text{ m/s}^2$) qiymatlari uchun harakat profillarini hisoblash;
3. MATLAB/Simulink dasturida teskari yondashuv (backward model) asosida yonilg'i sarfini hisoblovchi modelni ishlab chiqish;
4. Hisoblash natijalari asosida eng tejamkor harakat rejimlarini (eko-rejim) aniqlash hamda ularning energetik va ekologik samaradorligini tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda haydash uslubining yonilg'i sarfiga ta'siri bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. International Energy Agency ma'lumotlariga ko'ra, transport sektori global CO_2 chiqindilarining taxminan 24 foizini tashkil etadi va ushbu ko'rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda [2]. Shu bois, yonilg'i tejamkor haydash uslublarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan.

Kontaxi va boshqalar (2024) tomonidan o'tkazilgan olti oylik eksperiment natijalariga ko'ra, eko-haydash uslubiga o'tilgach, keskin tezlanishlar 3,8 foizga, tormozlanishlar 27,4 foizga kamayib, yonilg'i sarfi 8,1 foizga qisqargan [3]. Bagheri (2025) tadqiqotida ham tezlanish va tezlikdagi keskin o'zgarishlar yonilg'i sarfi hamda CO_2 chiqindilarida 12–25 foizgacha farq keltirib chiqarishi qayd etilgan [4].

Loman va boshqalar (2021) tadqiqotida eko-haydash eng past yonilg'i sarfini ta'minlagan bo'lib, 4,83 l/100 km natija qayd etilgan [5]. Liu va boshqalar (2025) tomonidan MO-SPO framework asosida ishlab chiqilgan DRL usuli an'anaviy MPC yondashuviga nisbatan 10 foiz kam yonilg'i sarfi va 16 foiz kam NO_x emissiyasiga erishishni ta'minlagan [6]. Bundan tashqari, Molina Campoverde (2024) shahar sharoitida keskin va notekis boshqaruv yonilg'i sarfini barqaror haydashga nisbatan 30 foizgacha oshirishi mumkinligini aniqlagan [7]. Ushbu natijalar optimal va muvozanatli haydash uslublarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati murakkab matematik modellarga asoslangan bo'lib, ular ko'proq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari uchun mo'ljallangan. Ko'plab ishlar me'yoriy harakat sikllari (NEDC, WLTC) asosida olib borilgan bo'lib, ushbu sharoitlarda olingan natijalar real shahar muhitida har doim ham to'liq takrorlanavermaydi. Chunki real harakat sharoitida haydovchilar svetoforlar, piyodalar va boshqa transport vositalari ta'sirida tezlikni doimiy ravishda o'zgartirishga majbur bo'ladi.


Bundan tashqari, mavjud ilmiy ishlarda eko-rejimni aniq harakat parametrlari (tezlanish va sekinlanish qiymatlari) asosida ifodalash hamda uni boshqa rejimlardan aniq ajratib ko'rsatish uslubi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, shahar sharoitiga moslashtirilgan tezlik profillarini ishlab chiqish va ularni aniq harakat parametrlari asosida baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, haydovchining haydash uslubi avtomobilning yonilg'i tejamkorligi hamda zararli chiqindi gazlar miqdoriga 4,3% dan 43% gacha ta'sir ko'rsatishi mumkin [8]. Bu esa harakat rejimlarini ilmiy asosda tanlash va optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Real shahar sharoitida avtomobil harakati, odatda, svetoforlar, chorrahalar va tirbandliklar ta'sirida turli harakat bosqichlarining ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Shu sababli ushbu tadqiqotda avtomobil harakat rejimlarini baholash uchun bir o'rkachli (trapetsiyasimon) tezlik profili tanlab olindi.

Trapetsiyasimon tezlik profili keng qo'llaniladigan va sodd matematik ifodaga ega bo'lgan model bo'lib, u tezlikning silliq o'zgarishini aks ettiradi. Mazkur profilga ko'ra, avtomobil dastlab ma'lum tezlanish bilan maksimal tezlikka erishadi, so'ngra qisqa vaqt davomida barqaror tezlikda harakatlanadi va yakunda silliq sekinlanish orqali to'xtash holatiga keladi (1-rasm).



1-rasm. Trapetsiyasimon harakat profilining soha (faza)larga bo'linish grafigi¹

Trapeziasimon profil uch asosiy bosqichdan iborat: tezlanish bosqichi, barqaror tezlikda harakatlanish bosqichi va sekinlanish bosqichi. Agar barqaror tezlik bosqichi qisqartirilsa yoki olib tashlansa, ushbu profil uchburchaksimon tezlik profiliga mos keladi.

Mazkur harakat profili uchta asosiy fazadan iborat: tezlanish fazasi, o'zgarmas tezlik fazasi va sekinlanish fazasi. Har bir fazada vaqt va masofa parametrlarining qiymatlari turlicha bo'ladi. MATLAB dasturida harakat profillarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan parametrlar va cheklovlar oldindan belgilab olindi.

Harakat jarayoni parametrlarini tanlash. Avvalo, tezlanish va sekinlanish qiymatlari tanlab olindi. Xalqaro tadqiqotlar va standartlarga ko'ra, yengil avtomobillarda kundalik shahar harakatida qulay va barqaror harakatni ta'minlovchi tezlanish qiymatlari odatda 1,0–2,0 m/s² oralig'ida bo'ladi. Masalan, SAE J2944 standartiga muvofiq, 2,0 m/s² gacha bo'lgan tezlanish qiymatlari silliq va barqaror harakat zonasi sifatida qaraladi, undan yuqori qiymatlar esa intensiv haydash rejimiga xos bo'ladi [9]. Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda 2,5 m/s² dan yuqori tezlanish qiymatlari yuqori dinamik harakat belgisi sifatida qayd etilgan [10].

Sekinlanish (tormozlanish) bo'yicha ham shunga o'xshash yondashuv kuzatiladi. EN 12299 standartiga ko'ra, qulay tormozlanish qiymati odatda 1,0 m/s² atrofida bo'lib, qisqa muddatli intensiv tormozlanish 2,5–3,0 m/s² gacha yetishi mumkin [11]. Bundan yuqori qiymatlar favqulodda holatlarga xos bo'lib, harakat qulayligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

ISO 2631-1 standarti insonning tezlanish va tebranishlarni qabul qilish xususiyatlarini baholaydi. Ushbu standartga ko'ra, tez-tez va keskin tezlanish hamda sekinlanishlar insonda charchoq va noqulaylikni kuchaytiradi [12]. Shu sababli ekologik va qulay haydash rejimlarida past va o'rtacha qiymatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida tezlanish qiymatlari quyidagi oraliqda tanlab olindi:

$$a \in (0,5; 1; 1,5; 2; 2,5; 3) \text{ [m/s}^2\text{]}$$

Sekinlanish qiymatlari esa quyidagicha belgilandi:

$$j \in (0,3; 0,8; 1,3; 1,8; 2,3; 2,8; 3; 4) \text{ [m/s}^2\text{]}$$

Bu yerda:

a – tezlanish,

j – sekinlanish.

Maksimal tezliklarni tanlash. Maksimal tezliklar $v_{\max}$ orqali belgilandi va quyidagi qiymatlar qabul qilindi:

$$v_{\max} \in (30; 40; 50; 60; 70) \text{ [km/soat]}$$

30 va 40 km/soat tezliklar transport oqimi zich bo'lgan holatlarni ifodalaydi. Ushbu tezliklar tirbandlik yuzaga kelgan yoki unga yaqin sharoitlarda harakatlanishni tavsiflaydi.

50 km/soat tezlik shahar ichidagi asosiy me'yoriy harakat tezligi hisoblanadi. Bu qiymat ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham shahar yo'llari uchun standart tezlik sifatida qabul qilingan. Shuningdek, BMT Iqtisodiy komissiyasi tavsiyalariga ko'ra ham shahar hududlarida 50 km/soat tezlik optimal hisoblanadi [15].

60 km/soat tezlik Toshkent shahrida amaldagi ruxsat etilgan maksimal tezlikni ifodalaydi. 2023-yil aprel oyidan boshlab ushbu ko'rsatkich 70 km/soatdan 60 km/soatga tushirilgan [13].

1 Mualliflar ishlanmasi

70 km/soat tezlik esa istiqboldagi tartibga solish yondashuvlarini hisobga olgan holda tanlab olindi. Amaldagi tartibga ko'ra, tezlikni o'lchashdagi texnik og'ishlar hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tezlik chegarasiga nisbatan qo'shimcha moslashuvchanlikni baholash maqsadida ushbu qiymat ham tahlilga kiritildi [14].

Masofa parametrini tanlash asoslari. Xalqaro transport injiniringi amaliyotida, xususan AQSh Federal avtomobil yo'llari ma'muriyati (FHWA) tavsiyalariga ko'ra, shahar arteriya yo'llarida svetoforlar orasidagi optimal masofa 400–800 metrni tashkil etadi [15,16]. Ushbu oraliq transport oqimini barqarorlashtirish va to'xtab-qo'zg'alish jarayonlarini kamaytirish uchun qulay hisoblanadi.

Qisqa masofalarni (200–300 metr) tanlash transport vositalarining tez-tez to'xtashiga olib keladi, bu esa yo'lni o'tkazuvchanlik qobiliyatini pasaytiradi hamda yonilg'i sarfi va chiqindi gazlar hajmini oshiradi. Shu sababli ushbu tadqiqotda xalqaro tajriba va me'yorlarga asoslanib, 400 metr masofa optimal qiymat sifatida qabul qilindi.

Harakat profillarini hisoblash: Hisoblashimiz avvalida biz fizikaning birinchi bo'limi, mexanikaning kinematika qismidagi tezlik, vaqt, masofa formulalarida foydalandik. Harakat profilini tuzayotganimizda biz har bir faza uchun alohida hisoblash ishlarini olib bordik.

Tezlanish fazasidagi masofani (S_a) aniqlash uchun :

$$S_a = v_0 \cdot t_a + \frac{a \cdot t_a^2}{2} \quad (1)$$

Tezlanish sohasidagi tezlanishga ketgan vaqtni hisoblash uchun:

$$t_a = \frac{V_{max} - V_0}{a} \quad (2)$$

Bu yerda:

V_{max} - maksimal tezlik [m/s],

V_0 - boshlang'ich tezlik [m/s],

a - tezlanish [m/s²]

Domiy tezlik sohasidagi masofani (S_{const}) aniqlash uchun :

$$S_{const} = S_{umumiy} - (S_a + S_j) \quad (3)$$

O'zgarmas tezlik sohasini bosib o'tish uchun sarflangan vaqtni topsih uchun:

$$t_{const} = S_{const} / v_{max} \quad (4)$$

Sekinlanish (tormozlanish) sohasidagi masofani (S_j) ni topish:

$$S_j = v_0 t_j - \frac{j \cdot t_j^2}{2} \quad (5)$$

Sekinlanish davrida sarflangan vaqtni t_j topish:

$$t_a = \frac{V_{max} - V_0}{a} \quad (6)$$


Umumiy vaqtni topsih uchun:

$$t_{sum} = t_a + t_{const} + t_j \quad (7)$$

Har bir fazaning tezligini aniqlash :

$$v(t) = \begin{cases} at, & 0 \leq t \leq t_a \\ v_{max}, & t_a < t \leq t_a + t_{const} \\ V_{max} + j \cdot (t - t_a - t_{const}), & t_a + t_{const} < t \leq t_a + t_{const} + t_j \end{cases} \quad (8)$$

Aniqlik darajasini oshirish maqsadida vaqt qadamini 0.01 sek deb oldik. Bu esa har 0.01 sekundagi tezlik, vaqt va masofa ma'lumotlariga ega bo'lishimizni ta'minlaydi (2-rasm).




2-rasm. Maksimal 30 km/soat tezlikda harakt profili²

2-rasmda tezlanish $a=0.5 \text{ m/s}^2$, sekinlanish $j=3$ bilan harkatlangandagi tezlik profili tasvirlangan. Bu faqatgina birgina maksimal 30 km/soat tezlik uchun hisoblangan harakat profili. Birgina maksimal tezlik uchun 48 ta harakat profili tuzib chiqildi. Agar tadqiqot ishimizda 400 metr masofa uchun 4 ta maksimal tezlik belgilab olganimizni inobatga oladigan bo'lsak, jami 240 dan ziyod hakat sikllarini hisoblab tuzib chiqdik.

Tadqiqotimiz avvalida aytilganidek tadqiqot obyekti sifatida shaharda harkatlanuvchi benzinli dvigatelga ega bo'lgan yengil avtomobillari tanlangan. Dasturni ishlab chiqishdan oldin NEXIA (MT) yengil avtomobilini hisobimiz uchun tanlab oldik

Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan belgilangan masofani saqlagan holda, va minimum yonilg'i va chiqindi CO_2 gaz miqdoriga eishgan harakat profilini Eko-rejim deb tanladik. Bu yerda asosiy kriteriya sifatida minimal yonilg'i sarfi va kam emissiya miqdori olindi. Nexia avtomobilining texnik tavsiflari asosida MATLAB/Simulink dasturida yonilg'i sarfi hisoblab chiqildi. Quydagi jadvallarda turli maksimal tezliklar uchun hisoblash natijalari keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Teskari yondashuvdagi yonilg'i sarfini aniqlovchi MATLAB/Simulink dasturiy modeli³

2 Mualliflar ishlanmasi
3 Mualliflar ishlanmasi


TAHLIL VA NATIJALAR

Nexia avtomobili uchun 400 metr masofada 30, 40, 50, 60 va 70 km/soat maksimal tezliklarda, tezlanishning 0,5 dan 3,0 m/s² gacha (0,5 qadam) va sekinlanishning 0,3 dan 4,0 m/s² gacha (0,5 qadam) bo'lgan qiymatlari uchun hisob-kitob ishlari amalga oshirildi. Har bir maksimal tezlikda jami 48 ta harakat profili hisoblanib, ulardan yonilg'i sarfi minimal bo'lganlari eko-rejim sifatida tanlab olindi. 1-jadvalda turli maksimal tezliklardagi eko-rejimlarning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan

1-jadval. Nexia avtomobilida turli maksimal tezliklardagi eko-rejim ko'rsatkichlari⁴

400 metr masofa uchun Eko-harakat rejimlarini baholash (Nexia avtomobili)											
V _{max} (km/ soat)	Rejimlar	V _{o'rt} (km/ soat)	Q (litr)	Q (gr)	Q (l/100 km)	CO ₂ (gr)	CO ₂ (gr/ km)	Vaqt (sek)	a (m/ s ²)	j (m/s ²)	S (km)
30	Eko	22,7	0,0296	21,897	7,41	67,44	168,61	63,550	2,5	0,3	400
40	Eko	25,4	0,0290	21,400	7,24	65,91	164,78	56,740	2,5	0,3	400
50	Eko	26,3	0,0264	19,498	6,60	60,05	150,13	54,72	2,5	0,3	400
60	Eko	38,1	0,0331	24,447	8,27	75,30	188,25	37,75	2,5	0,8	400
70	Eko	39,3	0,0326	24,092	8,15	74,20	185,51	36,610	2,5	0,8	400


Natijalar shuni ko'rsatdiki 50 km/soat maksimal tezlikda, tezlanish $a=2,5$ m/s² va sekinlanish $j=0,3$ m/s² tezlik profilida yonilg'i sarfi 6,60 l/100km ni tashkil etdi. Bu barcha hisoblangan profililar ichida eng past ko'rsatkich bo'ldi (4-rasm).



4-rasm. Nexia avtomobilida 400 metr masofani Eko-harakat rejimida harakatlangandagi minimum yonilg'i sarfiga to'g'ri keluvchi tezlik-vaqt grafiklari⁵

4 Mualliflar ishlanmasi

5 Mualliflar ishlanmasi



5-rasm. Turli maksimal tezliklarda Eko-harakat rejimida harakatlangandagi sarflagan yonilg'i sarfi diagrammasi .
a) Q (litr/100km) b) Q(gr)⁶


Eng past yonilg'i sarfi 50 km/soat maksimal tezlikda kuzatilgan – 6,60 l/100km. Bu tezlikda tezlanish $a=2,5 \text{ m/s}^2$ va sekinlanish $j=0,3 \text{ m/s}^2$ qiymatlarida erishilgan.

30 km/soat tezlikda yonilg'i sarfi 7,41 l/100km ni tashkil etib, 50 km/soatdagi ko'rsatkichdan 12,3% yuqori. 40 km/soat tezlikda esa 7,24 l/100km bilan 50 km/soatdan 9,7% yuqori.

60 km/soat tezlikda yonilg'i sarfi keskin oshib, 8,27 l/100km ni tashkil etgan. Bu 50 km/soatdagi ko'rsatkichdan 25,3% yuqori. 70 km/soat tezlikda esa 8,15 l/100km bilan 50 km/soatdan 23,5% yuqori.

Qiziqarli jihat shundaki, 60 va 70 km/soat tezliklarda sekinlanish qiymati $j=0,8 \text{ m/s}^2$ ga oshgan. Chunki sekinlanish $j=0,3 \text{ m/s}^2$ qiymatda tormozlansa 400 metr masofa oshib ketish holatlari kuzatildi. Bizning ishda esa 400 metr qat'iy ta'minlanishi lozim.

CO₂ emissiyasi tahlili: Avtomobilning harakat rejimida sarf bo'lgan CO₂ gazining miqdorini hisoblashda mavjud formuladan foydalandik [18,19].




Formuladagi kimyoviy elementlarni molyar massalarini qo'yib, tenglamani davom ettiramiz. Natijada 1 gr benzin to'liq yonishi uchun 3.51 gr O₂ kerak bo'lishi, undan 3.08 gr CO₂ gazi va 1.42 gr H₂O suv ajralib chiqishi isbotlanadi. CO₂ ning massasi O₂ massasining 88.03 % tashkil etdi.

(9) formula yonilg'ini kislorod bilan to'liq reaksiyaga kirganligi bildiradi, dvigatelning havo-yonilg'i aralashmasi $\lambda=1$ ga teng bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi. Tadqiqotimizda avtomobil turli rejimlarda harakatlangan bo'lsada, λ ko'rsatkichi 1 qiymatida o'lchandi.

CO₂ emissiyasi yonilg'i sarfiga to'g'ri proporsional ravishda o'zgaradi. Eng past emissiya 50 km/soat tezlikda qayd etilgan – 60.05 gr.

30 km/soat tezlikda emissiya 67.44 gr bo'lib, 50 km/soatga nisbatan 12,3% yuqori. 40 km/soat tezlikda 65.91 gr – 9,8% yuqori.


60 km/soat tezlikda emissiya 75.30 gr ga yetib, 50 km/soatdan 25,4% yuqori. 70 km/soat tezlikda esa 74.20 gr – 23,6% yuqori (6-rasm).



6-rasm. Nexia avtomobilida 400 metr masofani turli maksimal tezliklarda Eko-harakat rejimida harakatlanganda avtomobildan chiqqan CO2 gaz miqdori⁷

O'rtacha tezlik va harakat vaqti o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar bo'lib, ular nafaqat avtomobilning dinamik imkoniyatlarini, balki tanlangan harakat rejimining amaliy samaradorligini baholashda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda shahar sharoitida o'rtacha tezlikni oshirish ko'plab haydovchilar uchun asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi, chunki bu vaqtni tejash imkonini beradi. Biroq, o'rtacha tezlikni oshirishga intilish ko'pincha yonilg'i sarfining keskin oshishiga olib keladi

Eko-rejimlarda o'rtacha tezlik maksimal tezlik oshishi bilan ortib boradi. 30 km/soatda 22,7 km/soat bo'lgan o'rtacha tezlik, 70 km/soatda 39,3 km/soatga yetadi. Harakat vaqti esa mos ravishda 63,55 sekunddan 36,61 sekundgacha qisqardi (7-rasm).



7-rasm. Turli maksimal tezliklarda eko-rejimning tezlik va o'rtacha tezlik grafiklari⁸

7-Rasmda Nexia avtomobilining 400 metr masofada turli maksimal tezliklardagi (30, 40, 50, 60, 70 km/soat) eko-rejim tezlik profilari keltirilgan. Uzuqsiz chiziqlar har bir maksimal tezlikda Eko-rejim tezlik-vaqt grafiklarini ifodalaydi. Uzuq chiziqlar esa mos ravishda har bir eko-rejimning o'rtacha tezliklarini ko'rsatadi. Grafikdan ko'rishimiz mumkinki, 50 km/soat tezlikda o'rtacha tezlik eng past nisbatga ega (52,6%), ammo aynan shu rejim minimal yonilg'i sarfini ta'minlaydi. 60-70 km/soat tezliklarda o'rtacha tezlik keskin oshadi, biroq bu vaqtni tejash evaziga yonilg'i sarfi 25% dan yuqori ortadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Nexia avtomobili uchun eng tejamkor harakat rejimi 50 km/soat maksimal tezlikda kuzatilgan. Bu tezlik shahar sharoitida ruxsat etilgan maksimal tezlikka mos keladi va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada yengil avtomobillar uchun yonilg'i sarfini kamaytirishga qaratilgan eko-harakat rejimlarini nazariy asoslash uslubi ishlab chiqildi va quyidagi natijalarga erishildi:

1. Tadqiqotda real shahar sharoitlariga mos keluvchi bir o'rkachli trapetsiyasimon tezlik profili tanlandi. 30, 40, 50, 60 va 70 km/soat maksimal tezliklar hamda tezlanishning 0,5–3,0 m/s² va sekinlanishning 0,3–4,0 m/s² oraliqidagi qiymatlari uchun 240 dan ortiq harakat profilari shakllantirildi.

2. MATLAB/Simulink dasturida teskari yondashuv (backward model) asosida yonilg'i sarfini hisoblovchi dasturiy model ishlab chiqildi. Model tarkibiga harakat sikli, qarshilik kuchlari, g'ildirak, transmissiya, ichki yonuv dvigateli, yonilg'i sarfi va CO₂ chiqindilarini hisoblovchi bloklar kiritildi.

3. Hisoblash natijalariga ko'ra, har bir maksimal tezlik uchun eng tejamkor (eko) rejimlar aniqlandi. Nexia avtomobilida eng past yonilg'i sarfi 50 km/soat maksimal tezlikda, tezlanish $a = 2,5 \text{ m/s}^2$ va sekinlanish $j = 0,3 \text{ m/s}^2$ qiymatlarida kuzatilib, 6,60 l/100 km (150,13 g/km CO₂) ni tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, optimal tezlanish strategiyasi muayyan sharoitlarda yonilg'i tejamkorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, qisqa masofada kerakli tezlikka tezroq erishish umumiy energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi. Biroq, keskin va tez-tez tormozlanish jarayonlari energiya yo'qotishlariga olib kelib, qo'shimcha yonilg'i sarfini yuzaga keltiradi. Shu bois, tejamkor haydashning asosiy tamoyili sifatida



optimal tezlanish va silliq sekinlashuv uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv an'anaviy "faqat ravon tezlanish" tamoyiliga nisbatan yanada mukammalroq va muvozanatli qarashni taklif etadi.

Takliflar:

- Haydovchilar uchun eko-haydash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va keng joriy etish;
 - Shahar transport tizimida optimal tezlik rejimlarini targ'ib qilish orqali yonilg'i samaradorligini oshirish;
 - Avtomobil boshqaruv tizimlariga (on-board systems) real vaqt rejimida eko-haydash bo'yicha tavsiyalar beruvchi algoritmlarni joriy etish;
 - Kelgusida turli avtomobil modellarida va real yo'l sharoitlarida tajribaviy sinovlarni kengaytirish;
- Ishlab chiqilgan nazariy model yonilg'i sarfini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvni taklif etadi hamda keyingi tadqiqotlar va amaliy qo'llanmalar uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonda shaxsiy avtomobillar soni qanchaga yetgani ma'lum bo'ldi // Spot – Biznes va IT yangiliklari. – 2025-yil 11-dekabr. – <https://www.spot.uz/oz/2025/12/11/personal-car/>
2. Davies H. Global CO₂ emissions in 2025: Data, trends and climate solutions // Sustainability Global. – 2025-yil 25-may. – <https://sustainabilityglobal.org/global-co2-emissions-in-2025-data-trends-and-climate-solutions/>
3. Kontaxi A., Triantafyllou A., Yannis G. Investigation of the Impact of Eco-driving on Fuel Consumption Using Smartphone Data // Proceedings of the 30th Intelligent Transportation Systems (ITS) World Congress. – Dubai, 2024.
4. Bagheri E., Tehrani M.M., Azadi M., Moosavian A. Impact of driving characteristic parameters and vehicle type on fuel consumption and emissions performance over real driving cycles // PLoS ONE. – 2025. – 20(1): e0317098. – <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0317098>
5. Loman M., Šarkan B., Skrucany T. Comparison of fuel consumption of a passenger car depending on the driving style of the driver // Transportation Research Procedia. – 2021. – <https://doi.org/10.1016/j.trpro.2021.07.009>
6. Liu E., Lin Z., Chen H. et al. Multiobjective Eco-Driving Speed Optimization with Real-time Traffic: Balancing Fuel, NO_x, and Travel Time // Energy. – 2025. – Vol. 324. – 135793.
7. Rivera N., Molina J., Idrovo D., Narváez J. Influence Analysis of Driving Style on the Energy Consumption of an Electric Vehicle Through PID Signals Study // ICAT 2023, CCIS 2049. – 2024. – pp. 194–205.
8. Zhang Z., Demir E., Mason R., Di Cairano-Gilfedder C. Understanding freight drivers' behavior and the impact on vehicles' fuel consumption and CO₂ emissions // Journal of Transport Geography. – 2023. – <https://doi.org/10.1007/s12351-023-00798-2>
9. SAE International. SAE J2944 – Vehicle Acceleration and Smooth Driving Guidelines. – 2015.
10. IEEE. Johnson D., Trivedi M. Driving Style Recognition Using Vehicle Dynamics. – 2011.
11. EN 12299:2009. Railway applications – Ride comfort for passengers.
12. ISO 2631-1:1997. Mechanical vibration and shock – Evaluation of human exposure to whole-body vibration.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yo'l harakati qoidalariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror. – 2023-yil 3-aprel. – <https://lex.uz/docs/6422892>
14. Liticom. Tezlik cheklovlari va normativ o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot // TGStat platformasi. – https://uz.tgstat.com/en/channel/@liticom_liticom/308
15. United Nations Economic Commission for Europe. Road Safety Performance Review: Uzbekistan. – 2024. – <https://unece.org/sites/default/files/2024-05/Road%20Safety%20Performance%20Review%20Uzbekistan.pdf>
16. Federal Highway Administration. Signalized Intersections: Informational Guide. – FHWA-HRT-04-091, 2004.
17. Federal Highway Administration. Traffic Signal Timing Manual. – FHWA-HOP-08-024, 2008.
18. Mukhitdinov A., Turgunov D., Numanov M., Ravshanbekov J. Evaluation of the influence of the catalyst on the quantity of exhaust gases // Journal of Transport. – 2025. – Vol. 2, Issue 2. – <https://doi.org/10.56143/jot-journal.v2i2.285>
19. Turgunov D., Numanov M. Analysis of the amount of exhaust gases of the engine // International Journal of Transport and Technological Machines. – 2023. – Issue 1.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100